

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-iyun oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 22 747,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 5,2 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan 107,0 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Qoraqalpog'iston Respublikasining qo'shgan hissasi 2,8 % ga yetdi.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



2025- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2024- yil	2025- yil	
I. YAHM, jami	20 216,6	22 747,8	105,2
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	19 541,4	22 201,2	105,2
mahsulotlarga sof soliqlar	675,2	546,6	105,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	19 541,4	22 201,2	105,2
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 824,9	3 229,1	103,7
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	6 242,7	6 719,2	103,2
sanoat	4 512,5	4 783,8	102,2
qurilish	1 730,2	1 935,4	105,7
xizmatlar	10 473,8	12 252,9	106,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3 362,3	4 028,0	110,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 347,1	1 557,6	108,6
boshqa xizmat tarmoqlari	5 764,4	6 667,3	104,0

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 11 177,2 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 3,8 % ga yuqoridir.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2025- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)


	2024- yil	2025- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,7	97,6
mahsulotlarga sof soliqlar	3,3	2,4
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	14,5	14,5
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	32,0	30,2
sanoat	23,1	21,5
qurilish	8,9	8,7
xizmatlar	53,5	55,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	17,2	18,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,9	7,0
boshqa xizmat tarmoqlari	29,4	30,2

2025- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,6 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,4 % ini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 14,5 %ni, sanoat tarmog'i 21,5 % ni, qurilish 8,7 % ni va xizmatlar sohasi 55,3 % ni tashkil qildi.

Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2024- yil



2025- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,5 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 0,6 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,5 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 1,5 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,5 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 0,7 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,5 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 3,2 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 0,3 f.p.)ga ko'paydi.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,7 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 14,5 %), sanoatda – 102,2 % (21,5 %), qurilishda – 105,7 % (8,7 %), xizmatlar sohasida – 106,7 % ni (55,3 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 110,7 % (18,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 108,6 % (7,0 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,0 % dan (30,2 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2024- y.

2025- y.



6,3 %

YAHM

5,2 %



3,9 %

Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi

3,7 %



7,4 %

Sanoat

2,2 %



7,4 %

Qurilish

5,7 %




6,6 %

Xizmatlar

6,7 %

2025- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 107,0 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 110,2 % va Xizmatlarda – 109,6 % qayd etildi.

**Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha deflyator indeksi**
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 13 633,5 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-iyun oylarida – 11 597,3 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 61,4 % ni (2024- yilning yanvar-iyun oylarida – 59,3 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bogʻliq.

Yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da

2024- yil

11 597,3

59,3 %

2025- yil

13 633,5

61,4 %

